

СЕКЦИЯ 4. ҚУБЛА АРАЛ БОЙЫ ХАЛЫҚЛАРЫ ТАРИЙХЫН ОҚИТЫЎДЫН ЗАМАНАҒӨЙ МЕТОД ҲӘМ УСЫЛЛАРЫ

TARIX VA MA'NAVIYAT ASOSLARI DARSLARIDA O'QUVCHI VA TALABA LARDA VATANGA DAXLDORLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH.

H. Atajanov

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Nukus shahri

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O'zbekiston xalqi uchun Vatanga daxldorlik va vatanparvarlik dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Vatanga daxldorlik tuyg'usi tushunchasi nimani anglatadi? Vatan - tug'ilib o'sgan joy, yurt, «daxldorlik» co'zi esa arabcha «daxl» («aloqa», «munosabat») o'zagi asosida yasalgan bo'lib, biror ish-harakatga, jaraenga aloqadorlik, kimgadir taalluqlilik, nimagadir bog'liqlik ma'nosini bildiradi. Binobarin, Vatanga daxldorlik - Vatanga bog'liqlik, Vatan bilan bir butunlik demakdir. Bu o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bir deb bilish, o'z kelajagi, baxtu istiqbolini Vatan tinchligi va taraqqiётida ko'rish.

Daxldorlik – bu demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish hamda tinchlik-totuvlikning qadr-qimmatini chuqur anglash demakdir. Demak, milliy ma'naviyat, tarixiy xotira, qadriyatlarimiz fuqarolarni Vatanga daxldorlik ruhida tarbiyalashda asosiy mezon bo'lib hisoblanadi.

Milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siёsati darajasiga ko'tarildi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilaётgan barcha o'zgarish va yangilanishlar asosini ma'naviyat tashkil etadi.

Tarixiy xotira – bu tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixining daxlsizligini anglatishi shart. Har bir inson, men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qa erda, uning oёqqa turishi, tiklanish va shakllanish jaraeni qanday kechgan, degan savollarni o'ziga berishi tabiiy holdir.

Istiqlol, ozodlik uchun asrlar mobaynida kurash olib borgan To'maris, SHiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Madali Eshon, Nomoz Primqulov kabi qahramonlar bilan xalqimiz faxrlanadi, chunki ular jasorat va mardlik timsoli bo'lganlar. SHuning uchun ham o'quvchi va talabalar ularning vatanparvarligidan ibrat olishlari lozim, chunki Vatan himoyasi, yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun jon fido qilish chin vatanparvarlarga xosdir.

Vatanni sevish vatanparvarlikda namoён bo'ladi. Vatanparvarlikning asl ma'nosi Vatanga daxldorlik, unga g'amxo'rlik qiluvchi shaxs, ona yurtiga, o'z osheniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydi. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biridir.

Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z Vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashaётgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jaraenida takomillashib kelgan his-tuyg'ular majmui hamdir. Bu Vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoён bo'ladi!

Vatanparvarlik nihoyatda keng va teran tushuncha bo'lib, u faqat o'z Vatanini sevishdangina iborat bo'lib qolmay, balki o'zini Vatan bilan bir butun deb bilish, uning yaxshi-ёmon kunlarida birga bo'lish demakdir. Sodda qilib aytganda, vatanparvar – Vatan uchun xizmat qilaётgan kishi, Vatanining buguni va kelajagi uchun o'zini mas'ul deb bilgan fuqarodir. Milliy mustaqillik xalqimizda, ayniqsa o'sib kelaётgan ёsh avlodda vatanparvarlik tuyg'ulari tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Demak, Vatanga daxldorlik hissi – har bir insonning o'z kasbi-kori, bilimi va amaliy tajribasi bilan shu xalq, millat va davlat rivojiga ko'proq beminnat, beg'araz xizmat qilishida ham namoён bo'ladi. Jumladan, o'quvchi va talabalarning ham hozirgi

islohatlar davrida o'z zimmlariga yuklangan vazifa va burchlarini sidqidildan bajarib, kelgusi avlodga ozod va obod Vatan, erkin va farovon haèt, tinch va osuda yashash imkoniyatini yaratishi ham Vatanga daxldorlikni anglatadi.

O'quvchi va talabalarda vatanga daxldorlik tuyg'ularini shakllantirish uchun har bir darsda vatanparvar, ona Vatan uchun jon fido qilgan, xalqimiz uchun ardoqli bo'lgan ajdodlarimiz, ularning mehnatlarini, bosib o'tkan mashaqqatli yo'llarini, hozirgacha saqlanib qolgan meroslarini tarixiy dalillar, ko'rsatmali qurollar, videoroliklar, electron darsliklar, hujjatli filmlar orqali namoyish qilib borilsa darsning samaradorligi yanada oshadi va kutilgan natijani beradi. Shu bilan birga hozirgi kundagi zamonamiz qahramonlari bilan jonli uchrashuvlar tashkil qilish ham maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, tarix darslarida Tumaris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Namoz Pirmqulov va boshqalarning vatanga sodiqliklarini, jon fido qilganlarini misol qilib ko'rsatsak bo'ladi.

Qoraqalpog'iston tarixining yangi davri va «Ma'naviyat asoslari» turkum fanlarida esa tarixga bog'liq holda vatanga daxldorlik tuyg'ularini uyg'otish uchun zamon qahramonlari 1-Prezident I.Karimov va uning serqirrq hayot yo'lini, uning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida misol keltirilgan O.SHarafuddinov, [I.Karimov] shuningdek, sport va ilm-fan sohalarida bir necha bor olimpiada chempionlari bo'lgan vatanparvar yoshlarni, «Zulfiya»chi qizlarni misol keltirib o'tsak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch», T-2008.